maqsadli ko'rsatkichlar va shaffof nazorat bilan mustahkamlangan bunday mexanizmlarni joriy etish nafaqat mablag'larni sarflash samaradorligini oshiradi, balki ekologik vaziyatni barqaror yaxshilash, atrof-muhitga yetkaziladigan zararni kamaytirish va ekologik qonunbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish imkoniyatini yaratadi (A. Lysochenko, 2024[6]).

Umuman olganda, mavjud xalqaro va ilmiy manbalar ekologik sohada dasturiy va "yashil" budjetlashtirishning yuqori amaliy salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Biroq uni samarali amalga oshirish huquqiy, institutsional hamda metodologik mexanizmlarni takomillashtirishni talab qiladi

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ekologiya sohasida dasturiy budjetlashtirish amaliyotini o'rganish va qiyosiy tahlil qilishga asoslangan. Tadqiqot doirasida Fransiya, Kanada va Avstraliya kabi davlatlarning rasmiy budjet hujjatlari va hisobotlari, xalqaro tashkilotlar (IMF, OECD) tavsiyalari hamda ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar tahlil qilindi. Hujjatlar tahlili va qiyosiy yondashuv usullari orqali dasturiy budjetlashtirishning asosiy mexanizmlari, budjet dasturlarining tuzilishi va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston sharoitida mazkur sohadagi ilg'or xorijiy tajribani qo'llash bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda dasturiy budjetlashtirishga o'tish budjet mablag'larini ekologik ustuvor yo'nalishlar — jumladan, chiqindilarni kamaytirish, bioxilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishiga moslashish kabi global masalalar bilan bog'lash imkonini beradi (OECD, 2024[1]). Ushbu bo'limda dasturiy yondashuvni samarali joriy etgan mamlakatlar tajribasi va xalqaro institutlarning asosiy tavsiyalari tahlil qilinadi.

Fransiyada 2006-yildan boshlab Moliya to'g'risidagi organik qonun (Loi organique relative aux lois de finances, LOLF 2001) bilan belgilangan missiyalar (missions) va dasturlar (programmes) bo'yicha budjetlashtirish tizimi amal qilmoqda. Missiyalar davlat xarajatlarning yirik funksional yo'nalishlarini, dasturlar esa aniq maqsadlarga (objectifs) yo'naltirilgan xarajatlar majmuasini anglatadi. LOLF qonuni davlat moliyasini samaradorlik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan yangi institutsional modelga o'tkazib, parlament nazoratining huquqiy asosini yaratdi (Ministère de l'Économie, des Finances et de la Souveraineté industrielle et numérique de la France).

Ekologiya sohasidagi xarajatlar asosan "Ekologiya, rivojlanish va barqaror mobillik" budjet missiyasi (Mission "Écologie, développement et mobilités durables", EDMD) doirasida jamlangan. EDMD missiyasi tarkibidagi dasturlar orasida 113-kodli "Tabiiy landshaftlar, suv resurslari va bioxilma-xillik", 159-kodli "Ekspertiza, geografik ma'lumotlar va meteorologiya" hamda 174-kodli "Energetika, iqlim va konchilikdan keyingi davr bilan bog'liq masalalar" budjet dasturlari amalga oshiriladi (Projet annuel de performances, 2025[7]).

Mazkur dasturlar ijrosi uchun mas'uliyat Ekologik o'tish, bioxilma-xillik, o'rmon, dengiz va baliqchilik vazirligiga (Ministère de la Transition écologique, de la Biodiversité, de la Forêt, de la Mer et de la Pêche) yuklatilgan. Vazirlik faoliyatining ustuvor yo'nalishlari hukumatning ekologiya va iqlim sohasidagi strategiyalari, jumladan, Biologik xilma-xillik bo'yicha milliy strategiya (SNB 2030), Iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha milliy reja (PNACC), Ekologik o'tishni uzoq yillik moliyalashtirish strategiyasi (SPAFTE) hamda Energetika siyosatini dasturlashtirish (PPE) kabi qator strategik hujjatlar bilan belgilanadi.

Milliy strategiyalarda belgilangan maqsadlar budjet dasturlarining aniq natija ko'rsatkichlari bilan bog'langan. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushi, SO₂ chiqindilarining yillik kamayish darajasi, havo va suv sifati kabi indikatorlar ekologik tahdidlarga qarshi samarali kurashish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun muhim mezonlar hisoblanadi. Ushbu indikatorlar doimiy ravishda monitoring qilinadi va budjet dasturlarining samaradorligini baholashda asosiy o'rin tutadi.

Fransiyada 2020-yildan boshlab "yashil" budjetlashtirish (Budget Vert) amaliyoti joriy etilgan. Unga muvofiq, davlat xarajatlari iqlim va atrof-muhitga ta'siri bo'yicha baholanadi hamda har yilgi budjet hisobotiga maxsus ekologik ilova (Annexe Écologique) qo'shiladi. Ilovada barcha xarajat moddalarini iqlimga ijobiy, neytral yoki salbiy ta'sir ko'rsatishiga qarab tasniflanadi. Mazkur mexanizm OECD tavsiyalariga muvofiq ravishda davlat xarajatlari ekologik ustuvorliklar bilan muvofiqlashtirish va siyosiy qarorlarning ekologik oqibatlarini baholash imkonini yaratadi (OECD, 2022[8]). Xususan, 2024-yil uchun davlat budjeti ma'lumotlariga ko'ra, davlat budjetining jami 569,7 mlrd yevro xarajatlardan 39,7 mlrd yevro atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi, 3,1 mlrd yevro aralash ta'sir ko'rsatuvchi va 13,1 mlrd yevro salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xarajatlar sifatida tasniflangan (Projet de loi de finances, Annexe Écologique, 2024[9]).

Budjet xarajatlari samaradorligini baholashda Yillik samaradorlik hisobotlari tizimi (Projet Annuel de Performance, PAP) muhim o'rin tutadi. Har bir missiya bo'yicha tayyorlanadigan PAP hujjatlarida rejalashtirilgan va erishilgan natijalar ko'rsatkichlari taqqoslanadi. Agar belgilangan maqsadlarga to'liq erishilmagan bo'lsa, vazirlik buning sabablarini (masalan, tashqi omillar ta'siri, dasturlarni amalga oshirishdagi kechikishlar) yoritishi



hamda zarur tuzatish choralarini ko'rish lozim. Ushbu tizim davlat xarajatlarini natijaga yo'naltirish bilan bir qatorda parlament nazorati va fiskal shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi (Annexe au projet de loi de finances pour 2025[10]).

Fransiya tajribasida "yashil" budgetlashtirish faqat ekologik missiya bilan cheklanmay, boshqa sohalaridagi budget dasturlariga ham tatbiq etiladi. Masalan, binolarni energiya jihatidan modernizatsiya qilish (MaPrimeRénov'), jamoat transportining ekologik samaradorligini oshirish yoki hududlarni yashil infratuzilma bilan ta'minlashga oid xarajatlarni tegishli missiyalarda aks ettirilsa-da, ularning ekologik ta'siri "Budget Vert" orqali hisobga olinadi.

Shu bilan birga, mamlakat budget tizimida ma'lum kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, ekologik xarajatlarning turli missiyalar o'rtasida taqsimlanishi (fragmentatsiya), ma'lumotlar almashinuvidagi muvofiqlashtirish yetishmasligi va byurokratik murakkablik tizimning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (Cour des comptes, 2024[11]).

Fransiya tajribasi ekologik xarajatlarni strategik maqsadlar bilan bog'lash hamda natijaga yo'naltirilgan rejalashtirish asosida davlat moliyasini samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu model hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlovchi dasturiy budgetlashtirishning huquqiy hamda amaliy jihatdan takomillashgan shakli sifatida O'zbekiston uchun ham qo'llanishi mumkin.

Kanadada dasturiy budgetlashtirish tizimi Natijalarga asoslangan boshqaruv (Results-Based Management Framework, RMF) tamoyillariga asoslanadi. Ushbu tizim davlat xarajatlarning samaradorligini aniq o'lchash, ochiq hisobdorlikni ta'minlash va strategik rejalashtirish jarayonlarini yagona tizimda uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. RMF tizimining huquqiy va institutsional poydevori federal hukumat tomonidan qabul qilingan "Natijalar siyosati tamoyillari" (Results Policy Framework) hamda Moliyaviy boshqaruv to'g'risidagi qonun (Financial Administration Act) bilan mustahkamlangan. Mazkur me'yoriy asoslar davlat moliyasi boshqaruvini natijadorlik, hisobdorlik va shaffoflik tamoyillari asosida tashkil etishga qaratilgan (Treasury Board Secretariat, 2022[12]).

Ekologiya va iqlim sohasida asosiy vakolatli federal organ Atrof-muhit va iqlim o'zgarishi vazirligi (Environment and Climate Change Canada, ECCC) hisoblanadi. Vazirlik faoliyati to'rtta strategik yo'nalish (Core Responsibilities) — "toza o'sishni ta'minlash va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish", "atrof-muhit ifloslanishining oldini olish", "tabiatni asrash va muhofaza qilish" hamda "ob-havo va atrof-muhit holatini prognozlash" yo'nalishlari bo'yicha tashkil etilgan. Xususan, ECCC vazirligining 2024–2025-yillar uchun rejalashtirilgan umumiy portfel budjeti 2,8 mlrd Kanada dollarini tashkil etgan bo'lib, shundan 1,04 mlrd dollar "toza o'sish va iqlim o'zgarishi", 0,74 mlrd dollar esa "tabiatni asrash" yo'nalishlariga ajratilgan. Ushbu ko'rsatkichlar Kanadada iqlim xarajatlari davlat moliyasi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganini ko'rsatadi (Departmental Plan, 2024–2025[13]).

Vazirlikning har bir faoliyat yo'nalishi bo'yicha dasturlar jamlanmasi (Program Inventory), rejalashtirilgan natijalar va samaradorlik indikatorlari Vazirlikning rejasi (Departmental Plans, DPs) hujjatlarida belgilangan, ularning ijrosi esa Vazirlikning natijalar bo'yicha hisobotida (Departmental Results Reports, DRRs) tahlil qilinadi. Mazkur tizim orqali davlat organlari faoliyati rejalashtirilgan natijalar asosida baholanadi, bu esa budget xarajatlari va strategik natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi (Environment and Climate Change Canada).

Masalan, vazirlik faoliyatining "issiqxona gazlari va ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini kamaytirish"ga qaratilgan natijasi quyidagi indikatorlar orqali baholanadi: umumiy emissiya miqdori, yengil va yuk avtomobillari hissasi, qora uglerod va metan chiqindilari (maqsad — mos ravishda 25 foiz va 40–45 foizga kamaytirish), barcha hududlarda uglerod narxlash tizimining joriy etilishi hamda 2005–2006-yillarga nisbatan umumiy emissiyaning 40 foizga qisqarishi ko'rsatkichlari. Ushbu indikatorlar vazirlikning strategik maqsadlari amalga oshirilishini muntazam monitoring qilish imkonini beradi.

Kanada tajribasining muhim jihatlaridan biri — dasturiy budgetlashtirishning ekologik barqarorlik ko'rsatkichlari tizimi (Canadian Environmental Sustainability Indicators, CESI) va ekologik-iqtisodiy hisoblar tizimi (System of Environmental-Economic Accounting, SEEA) bilan uzviy bog'liqligidir. CESI orqali federal hukumat har yili havo, suv, tuproq, chiqindilar, energiya samaradorligi va bioxilma-xillik bo'yicha 80 dan ortiq indikatorni e'lon qiladi. Mazkur tizim davlat dasturlari natijalarini ochiq monitoring qilish hamda milliy ekologik siyosatning umumiy ta'sirini baholash imkonini yaratadi (ECCC, Environmental Indicators[14]).

SEEA tizimi 2024-yildan boshlab federal budgetni qabul qilish jarayoniga to'liq integratsiya qilingan. Har bir budget tashabbusi "Iqlim, tabiat va iqtisodiyot linzasi" (Climate, Nature and Economy Lens) orqali baholanadi. Ushbu jarayonda loyiha va xarajat tashabbuslarining chiqindilar darajasi, tabiatga ta'siri hamda iqtisodiy samaradorligi kompleks ravishda tahlil qilinadi. Natijada SEEA tizimi budget qarorlarining ekologik oqibatlarini oldindan baholash va barqaror siyosatni ta'minlashda muhim vosita vazifasini bajaradi (Statistics Canada, 2025[15]).



Federal vazirlik va idoralar faoliyatining natijalari Kanadaning GC InfoBase onlayn platformasida jamoatchilik uchun ochiq e'lon qilinadi. Ushbu platformada har bir dastur bo'yicha ajratilgan mablag'lar va haqiqiy xarajatlar (oylar va yillar kesimida), dasturlarning samaradorligi va natijadorligi ko'rsatkichlari, rejalarining bajarilishi va xarajatlarning foizdagi nisbati batafsil tarzda taqdim etilib, hisobdorlik hamda shaffoflikning yuqori darajasi ta'minlanadi (OECD, 2024[16]).

Avstraliyada natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish tizimi (Performance-Based Budgeting, PBB) 1999-yildan boshlab davlat moliyasini isloh qilish jarayonlari doirasida bosqichma-bosqich joriy etilgan hamda 2013-yildagi "Davlat boshqaruvi, samaradorlik va hisobdorlik to'g'risida"gi qonun (PGPA) bilan huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Mazkur qonun davlat idoralari faoliyatida hisobdorlik, samaradorlik va shaffoflik tamoyillarini ta'minlash, shuningdek, parlament nazoratini kuchaytirish va faoliyat natijalarini moliyaviy qarorlar bilan bog'lashni nazarda tutadi.

Federal darajada ekologik siyosatni amalga oshirish vakolati Iqlim o'zgarishi, energetika, atrof-muhit va suv xo'jaligi vazirligiga (Department of Climate Change, Energy, the Environment and Water, DCCEEW) yuklatilgan. DCCEEW vazirligi mamlakatning milliy iqlim siyosati, energiya xavfsizligi va suv resurslarini barqaror boshqarish strategiyalarini muvofiqlashtirish uchun mas'ul hisoblanadi. Vazirlik va sohada faoliyat yurituvchi idoralar "Iqlim o'zgarishi, energetika, atrof-muhit va suv resurslari" portfeli orqali rejalashtiriladi. Budjet buyurtmalari portfeli (Portfolio Budget Statements, PBS) doirasida vazirlik va idoralar uchun strategik natijalar (Outcomes) hamda ularni amalga oshiruvchi budjet dasturlari (Programs) belgilanadi (PBS, 2025–2026[17]).

DCCEEW vazirligining 2025–2026-yillar uchun korporativ rejasi (Corporate Plan) to'rtta strategik maqsadni (Outcome) qamrab olgan bo'lib, ularni amalga oshirish uchun ajratilgan budjet mablag'lari tegishli yo'nalishdagi dasturlar o'rtasida taqsimlanadi. Misol uchun, DCCEEWning 1-strategik maqsadi "2050-yilga kelib Avstraliya iqtisodiyotining sof nol chiqindiga o'tishini qo'llab-quvvatlash"ga qaratilgan. Ushbu maqsad 1.1-sonli "Avstraliyada issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish" hamda 1.2-sonli "Ishonchli, xavfsiz va arzon energiya ta'minotini qo'llab-quvvatlash" dasturlari orqali amalga oshiriladi. Bu budjet dasturlarining samaradorligi 2005-yilga nisbatan issiqxona gazlari emissiyalarining pasayish darajasi va Avstraliya elektroenergetika balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi indikatorlari orqali baholanadi (Corporate Plan, 2024–2025[18]).

PGPA qonuniga muvofiq barcha budjet dasturlari Hamdo'stlikning samaradorlik tizimi (Commonwealth Performance Framework, CPF) bilan bog'langan bo'lib, mazkur mexanizm rejalashtirish, ijro va baholash bosqichlarida yagona natijadorlik zanjirini ta'minlaydi. CPF doirasida har bir dastur uchun aniqlashtirilgan natijalar va ularning ijrosi muntazam ravishda monitoring qilinadi va tahlil etiladi. Bu esa vazirlik hamda idoralarga strategiyalarini o'z vaqtida qayta ko'rib chiqish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi (Department of Finance, 2024[19]).

Ekologiya portfeli doirasida Clean Energy Finance Corporation (CEFC) va Australian Renewable Energy Agency (ARENA) kabi agentliklar orqali davlat "yashil" investitsiyalarni moliyalashtiradi hamda xususiy sektorni faol jalb etadi. Xususan, CEFC hukumatning barqaror energetika va past uglerodli iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik maqsadlari bilan to'liq integratsiyalangan holda faoliyat yuritadi. CEFC orqali amalga oshiriladigan investitsiya siyosatining samaradorligi har yili aniqlangan indikatorlar asosida baholanadi. Masalan, 2023–2024-yillarda 1 AQSh dollari davlat sarmoyasiga 4,01 AQSh dollari xususiy sarmoya to'g'ri kelgan (CEFC Annual Report, 2023[20]). Bu esa davlat-xususiy sheriklik modelining muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Avstraliya budjet tizimida Clean Energy Regulator tomonidan uy-joylarning energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan subsidiyalash dasturi hamda chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan xususiy sarmoyalarni rag'batlantirish mexanizmi — Emissiyalarni qisqartirish fondi (Emissions Reduction Fund, ERF) dasturi amalga oshirilmoqda. ERF doirasida sxema ishtirokchilariga kamaytirilgan yoki oldi olingan har bir tonna CO₂ ekvivalenti uchun uglerod kreditlari beriladi (Australian Carbon Credit Units). Ushbu kreditlar bozorda sotilishi yoki davlat dasturlariga qaytarilishi mumkin bo'lib, davlat xarajatlarning samaradorligini bozor bahosi orqali baholash imkonini yaratadi (Clean Energy Regulator, 2024[21]).

Avstraliya modeli o'zining pragmatik yondashuvi bilan ajralib turadi. Uning institutsional barqarorligi va hisobdorlik madaniyati muhim jihat sifatida e'tirof etiladi. Har bir budjet dasturining samaradorligi va xavf darajasi Risk Management and Oversight Committees tomonidan baholanadi. Ushbu tuzilmalar har chorakda hisobot tayyorlab, Australian National Audit Office (ANAO)ga taqdim etadi. Auditorlar hisobotlarida ta'kidlanishicha, ekologiya sohasidagi yirik infratuzilma loyihalarida xavflarni baholash va tender jarayonlarini shaffoflashtirish muhim ahamiyat kasb etadi (ANAO Performance Audit Report, 2023–2024[22]).

Quyida Fransiya, Kanada va Avstraliya davlatlarida ekologiya sohasida dasturiy budjetlashtirishning asosiy elementlarini taqqoslash uchun qiyosiy jadval keltiriladi (1-jadval).

1-jadval. Rivojlangan mamlakatlarda ekologiya sohasida dasturiy budjetlashtirish modellari¹

№	Mezonlar/ Mamlakatlar	Fransiya	Kanada	Avstraliya
1	Qonunchilik asosi	“Moliya to‘g‘risida”gi Organik qonun (LOLF, 2001)	Results Policy Framework va Financial Administration Act	“Davlat boshqaruvi, samaradorlik va hisobdorlik to‘g‘risida”gi qonun (PGPA, 2013)
2	Vakolatli davlat organi	Ekologik o‘tish, bioxilma-xillik, o‘rmon, dengiz va baliqchilik vazirligi	Atrof-muhit. va iqlim o‘zgarishi vazirligi (ECCC)	Iqlim o‘zgarishi, energetika, atrof-muhit va suv xo‘jaligi masalalari vazirligi (DCCEEW)
3	Dasturiy budjet tuzilishi	Missiya → dastur → xarakatlar (PAP/RAP)	Departmental Plans (DPs) → Results Reports (DRRs)	Portfolio Budget Statements (PBS) → Outcomes/Programs
4	Natijadorlikni baholash mexanizmi	Yillik samaradorlik hisoboti	CESI (Environmental Sustainability Indicators) va SEEA	EPRF (Environmental Performance Reporting Framework) va ANAO auditi
5	Yashil budjetlashtirish instrumentlari	“Budget Vert” (har bir xarajat moddasining iqlimiy ta’siri baholanadi)	Climate–Nature Lens, CESI indikatorlari	CEFC, ARENA, ERF va ACCU bozor mexanizmlari
6	Moliyalashtirish manbalari	Davlat budjeti va ekologik soliqlar	Federal jamg‘armalar (Low Carbon Economy Fund, Clean Fuels Fund)	CEFC orqali “yashil” loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash (PPP) va Rewiring the Nation
7	Monitoring va hisobdorlik	Yillik hisobotlar (Performance Reports), parlament nazorati	DRR va CESD auditi	ANAO auditi, Risk Oversight Committee hisobotlari
8	Kamchiliklar va tahdidlar	Missiyalar bo‘yicha fragmentatsiya, ma’lumotlar ko‘pligi	Indikatorlar tizimida muvofiqlashtirish yetishmasligi	Tender jarayonlarida shaffoflik muammolari

O‘rganilgan mamlakatlar tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda ekologik siyosatni moliyalashtirish faqat xarajatlarni darajasida emas, balki natijalar va ularning real ta’sirini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Fransiya, Kanada va Avstraliya tajribasi shundan dalolat beradiki, ekologik dasturiy budjetlashtirishda samaradorlikni ta’minlash uchun mustahkam huquqiy hamda institutsional asos, sohaviy muvofiqlashtirish tizimi va aniq iyerarxik tuzilishga ega indikatorlar bazasi zarur.

Mazkur mamlakatlarda xarajatlarning ekologik hamda iqlimiy ta’sirini baholovchi maxsus instrumentlar — Budget Vert, Climate–Nature Lens va CEFC kabi mexanizmlar qo‘llaniladi. Natijalarni baholash tizimi har bir mamlakatda o‘ziga xos shaklda tashkil etilgan. Masalan, Fransiyaning Budget Vert tizimi xarajatlarni ijobiy, neytral yoki salbiy deb tasniflaydi. Shu bilan birga, Hisob palatasining 2024-yilgi hisobotida 2025-yil uchun budjet xarajatlarning atigi 7 foizi “yashil” deb belgilanganini, qolgan 90 foizining esa hali tasniflanmaganini qayd etilgan (Le budget vert de l’État, 2024[23]).

Kanadada CESI va SEEA kabi ilg‘or ma’lumot tizimlari orqali ekologik indikatorlar bazasi shakllangan bo‘lsa-da, Kanada Bosh auditorining 2025-yildagi hisobotida Milliy moslashuv strategiyasida iqlim xavflari yetarli darajada integratsiya qilinmagani hamda moslashuv siyosatini baholash uchun institutsional monitoring va hisobdorlik mexanizmlarining to‘liq ishlab chiqilmagani ta’kidlangan (Independent Auditor’s Report, 2025[24]).

Fransiya va Kanadada ekologik dasturlar asosan davlat budjeti hamda soliqlar hisobiga moliyalashtiriladi, xususi sektorning ishtiroki esa cheklangan. Avstraliyada esa CEFC korporatsiyasi va ARENA orqali davlat–xususi sheriklik asosida yirik xususi sarmoyalarni jalb etish imkoniyati yaratilgan. Avstraliya Milliy audit idorasi tomonidan olib borilgan tahlillarda CEFC portfelidagi moliyaviy xavflarni tizimli baholash va xususi sarmoyaning leverage darajasini aniqlashda muayyan muammolar mavjudligi qayd etilgan [20].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ekologiya sohasida dasturiy budjetlashtirish bo‘yicha o‘rganilgan xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, iqlim va ekologik maqsadlarni davlat moliyaviy rejalashtirish tizimiga to‘liq integratsiya qilish, natijaga yo‘naltirilgan

1 Manba: Mualliflar tomonidan tayyorlangan.



indikatorlar asosida baholash hamda xarajatlarni shaffof mexanizmlar orqali monitoring qilish ekologik yo'nalishdagi xarajatlarning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-455-son² qarorida davlat xarajatlarning, shu jumladan ekologiya sohasiga yo'naltiriladigan mablag'larning asosiy parametrlari va yo'nalishlari belgilangan. Mazkur qarorga muvofiq, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga tabiiy obyektlar kadastrini yuritish, himoya o'rmonlarini barpo etish, "Yashil makon" loyihasi doirasida ko'kalamzorlashtirish, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va turizmni rivojlantirishga oid budjet dasturlarini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

Vazirlik budjet dasturlarida qo'llanilgan indikatorlar amaliy va aniq natijalarga yo'naltirilgan bo'lib, yakuniy va bevosita natijalarni tizimli baholashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir ko'rsatkichlari, ekotizimlar holati va inson salomatligi bilan bog'liq indikatorlar yetarli darajada qamrab olinmagan.

O'rganilgan xorijiy tajriba va xalqaro moliya institutlari tavsiyalariga asoslanib, O'zbekistonda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida dasturiy budjetlashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar maqsadga muvofiq:

Birinchidan, ekologik yo'nalishdagi budjet xarajatlari samaradorligini iqlimiy omillarni inobatga olgan holda tizimli baholash zarur. Bunda budjet dasturlari indikatorlari Parij bitimi, BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC) hamda yangilangan milliy hissalar (NDC) maqsadlari bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, dekarbonizatsiya strategiyalari va rasmiy iqlim hisobotlariga asoslangan ko'p qirrali indikatorlar tizimi iqlim siyosati samaradorligini aniq baholash imkonini beradi. Masalan, Fransiyada Milliy past uglerod strategiyasi (SNBC) doirasida "ta'sir zanjirlari" (impact chains) modeli qo'llanilib, budjet dasturlarining iqlimga ta'sirini ilmiy asosda baholashga xizmat qilmoqda. Kanadada esa budjet xarajatlarning samaradorligi "Gender-Based Analysis Plus" (GBA+) metodologiyasi orqali baholanib, iqlim siyosatining gender va ijtimoiy adolat jihatlariga ta'siri aniqlanadi.

Ikkinchidan, budjet dasturlari indikatorlarini ekologik statistika bilan integratsiyalash zarur. Xususan, atrof-muhit ifloslanishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi va tuproq unumdorligining tiklanishi kabi ko'rsatkichlar asosida yagona indikatorlar bazasini shakllantirish lozim. Bunday yondashuv Avstraliyada Atrof-muhit-iqtisodiy hisoblar (Environmental-Economic Accounts) tizimi orqali samarali tarzda joriy etilgan bo'lib, ekologik va moliyaviy siyosat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi.

Uchinchidan, monitoring va baholash tizimini takomillashtirish uchun "chiqish-natija-ta'sir" (output–outcome–impact) indikatorlari iyerarxiyasini joriy etish zarur. Chiqish indikatorlari orqali amalga oshirilgan chora-tadbirlarning to'g'ridan to'g'ri natijalari, ta'sir indikatorlari orqali ularning ijtimoiy-ekologik oqibatlari, samaradorlik indikatorlari orqali esa uzoq muddatli natijalari tahlil qilinadi. Bunday yondashuv siyosatning jamiyat va atrof-muhitga haqiqiy ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

To'rtinchidan, ekologik maqsadlar turli sohalarni (transport, energetika, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqalar) qamrab olgan sababli budjetni rejalashtirish jarayonida tegishli vazirlik va idoralar o'rtasida maqsad va ko'rsatkichlarni muvofiqlashtirish lozim. Budjet buyurtmalarini ekologik ustuvorliklar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, budjet dasturlarining ijrosini samarali tahlil qilish uchun muntazam hisobot berish amaliyotini joriy etish kerak. "Ochiq budjet" tizimini natijalar monitoringi modullari bilan integratsiyalash orqali raqamli platformalarda moliyaviy hisobotlar bilan bir qatorda dastur ijrosi ko'rsatkichlarini ham e'lon qilish lozim. Masalan, Kanada (GC InfoBase) va Avstraliya ("Transparency Portal", "Performance Dashboard") tizimlarida davlat organlari, jamoatchilik va xalqaro tashkilotlar ekologik xarajatlarni hamda natijalarni onlayn kuzatish imkoniyatiga ega.

Oltinchidan, hududlar, nodavlat notijorat tashkilotlar va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Ekologik loyihalar bo'yicha takliflarni yig'ish uchun elektron "ekoportal" yaratish, aholining ekologik ta'lim bilan qamrov darajasi va jamoatchilik ishtirokini aks ettiruvchi indikatorlarni joriy etish muhim. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, aholining faol ishtiroki yuqori bo'lgan davlatlarda barqaror va samarali natijalarga erishilmoqda. Masalan, Fransiyada SNBC dasturlari jamoat muhokamalari orqali shakllantiriladi, Avstraliyada esa CEFC loyihalari mahalliy hokimiyatlar va xususiy sektor bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Green Budgeting in OECD Countries 2024. https://www.oecd.org/en/publications/green-budgeting-in-oecd-countries-2024_9aea61f0-en/full-report.html.
2. How to Make the Management of Public Finances Climate-Sensitive – "Green PFM" by Bryn Battersby, Fabien Gouguet, Claude P Wendling, Jacques Charaoui, Murray Petrie. <https://www.imf.org/en/Publications/Fiscal-Affairs-Department-How-To-Notes/Issues/2022/12/08/How-to-Make-the-Management-of-Public-Finances-Climate-SensitiveGreen-PFM-525169>.

2 <https://lex.uz/ru/docs/-7283107>



3. Finance for Nature: Impact Report 2022. United Nations Environment Programme. <https://www.unep.org/resources/assessment/assessing-environmental-impacts-global-review-legislation>.
4. Petkova, N. Integrating Climate Change into the Medium-Term Budgetary Frameworks. - World Bank Policy Research Working Paper, 2009.
5. Göksu, G. A cross-country analysis of green public finance management and budgeting in supporting sustainable development. <https://dergipark.org.tr/en/pub/sayistay/issue/73158/1170928>.
6. Лысоченко, А. Управление и бюджетное финансирование экологических проектов и программ, 2024.: <https://cyberleninka.ru/article/n/upravlenie-i-byudzhethnoe-finansirovanie-ekologicheskikh-proektov-i-programm>.
7. Mission Écologie, développement et mobilité durables, 2025. https://www2.assemblee-nationale.fr/static/17/Annexes-DL/PLF-2025/Ecologie_developpement_mobilites_durables.pdf
8. Green Budgeting in OECD Countries, 2022. <https://www.oecd.org/en/topics/green-budgeting.html>.
9. Projet de loi de finances, Annexe Écologique. 2024. https://www.budget.gouv.fr/reperes/budget_vert/articles/4eme-edition-budget-vert-plf
10. Annexe au projet de loi de finances pour 2025. https://www2.assemblee-nationale.fr/static/17/Annexes-DL/PLF-2025/Ecologie_developpement_mobilites_durables.pdf.
11. Cour Des Comptes. Le rapport public annuel 2024. <https://www.ccomptes.fr/fr/publications/le-rapport-public-annuel-2024>
12. Evaluation Policy Results-based Management and Accountability Framework (RMAF). <https://www.tbs-sct.canada.ca/cee/tools-outils/polrmaf-polcgr-eng.asp>
13. Environment and Climate Change Canada's, 2024-25 Departmental plan. <https://www.canada.ca/en/environment-climate-change/corporate/transparency/priorities-management/departmental-plans/2024-2025.html>.
14. Canadian environmental indicators on air, biodiversity, climate, water, waste and contaminants. <https://www.canada.ca/en/environment-climate-change/services/environmental-indicators.html>.
15. Canadian System of Environmental-Economic Accounts, 2025. <https://www23.statcan.gc.ca/imdb/p2SV.pl?Function=getSurvey&SDDS=5331>
16. Empowering fiscal reporting with digital and interactive approaches. Canada. 2024. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/support-materials/2025/02/empowering-fiscal-reporting-with-digital-and-interactive-approaches_3bd128d8/Case%20study-Canada.pdf.
17. Portfolio Budget Statements 2025-2026. <https://www.dcceew.gov.au/sites/default/files/documents/dcceew-2025-26-pbs.pdf>
18. DCCEEW Corporate Plan 2024–25. <https://www.dcceew.gov.au/sites/default/files/documents/corporate-plan-2024-25.pdf>
19. Commonwealth Performance Framework. <https://www.finance.gov.au/government/managing-commonwealth-resources/planning-and-reporting/commonwealth-performance-framework>
20. Clean Energy Finance Corporation Annual Report 2023-2024. <https://www.cefc.com.au/annual-report-2024/>.
20. Clean Energy Regulator. <https://cer.gov.au/about-us/our-reports-and-accountability/annual-reports>.
21. Performance Audit Outcomes, 2023–2024. <https://www.anao.gov.au/work/information/2023-24-performance-audit-outcomes>
22. Le budget vert de l'État, 2024. https://www.vie-publique.fr/files/medias/L_essentiel_Numero_3_Le_budget_vert.pdf
23. Independent Auditor's Report, 2025. https://www.oag-bvg.gc.ca/internet/docs/parl_cesd_202506_01_e.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
